




2020-yil yanvar-mart oylarida QURILISH ISHLARI

Joriy yilning yanvar-mart oylarida Farg'ona viloyatida jami **990,1** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan **107,3 %** ni tashkil etdi.



■ Jami qurilish ishlari hajmi



50,9
mlrd. so'm

- Yirik qurilish tashkilotlari

612,4
mlrd. so'm

- Kichik korxona va
mikrofirmalar

326,8
mlrd. so'm

- Norasmiy sektor

Joriy davrda jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **50,9** mlrd. so'mni tashkil etdi. O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda **48,4** % ishlar bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **5,1** % ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkich darajasidan **6,3** % punktga kamaygan.


Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi joriy davrda qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan keskin oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **61,9** % i to'g'ri kelib, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan **115,6** %ni tashkil etgan holda **612,4** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **1,7** % punktga ko'payib, **33,0** % ni tashkil etdi va **326,8** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. O'tgan yilning mos davridagi hajm bilan solishtirganda **113,6** % ni tashkil etgani kuzatildi.

Davlat va nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar bo'yicha qurilish ishlari

2020-yil (yanvar-mart)


Davlat
mulki



Nodavlat
mulk

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **42,1** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **4,3** % ni tashkil etdi, nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan esa **948,0** mlrd. so'm ishlar bajarilib, jami qurilish ishlari hajmining **95,7** % ni tashkil etdi.

Faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari (mlrd.so'mda)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo`ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo`ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.


Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi ulushi **1,6 %** ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan **5,4 %** punktga kamaygan.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to`g`ri kelgan ulush o'tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan **3,2 %** punktga ko`payib, **56,2 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa o'tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan **2,2 %** punktga ko`paygan bo'llib, **42,2 %** ni tashkil etdi.



Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari (jamiga nisbatan % da)




Bino va inshootlar qurish bo'yicha qurilish ishlarida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **1,6 %** ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **5,4 %** punktga kamaygan.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **56,2 %** (3,2 % punktga ko'paydi) va norasmiy sektoring ulushi **42,2 %** ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **2,2 %** punktga ko'paydi.



Fuqarolik obyektlari qurish bo'yicha qurilish ishlari

(jamiga nisbatan % da)




Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **22,9 %** ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **0,6 %** punktga ko'paydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **76,4 % (0,4 %** punktga ko'paydi) va norasmiy sektoring ulushi **0,7 %** ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **1,0 %** punktga kamaydi.



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

(jamiga nisbatan % da)



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi **12,8 %** ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **17,7 %** punktga kamaydi.


Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **87,2 %** ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **17,7 %** punktga ko'paygani kuzatildi.

Hududlar kesimida qurilish ishlari

| No | Shahar-tumanlar | 2019-yil yanvar-mart (mlrd, so'm) | 2020-yil yanvar-mart (mlrd, so'm) | O'sish sur'ati (%) | Jamiga nisbatan ulushi (%) da |
|-------------------------------|------------------------|--|--|-------------------------------|--|
| Viloyat bo'yicha jami: | | 780,8 | 990,1 | 107,3 | 100,0 |
| Shaharlar: | | | | | |
| 1 | Farg'ona | 174,6 | 216,6 | 104,9 | 21,9 |
| 2 | Qo'qon | 66,8 | 78,5 | 99,5 | 7,9 |
| 3 | Quvasoy | 77,5 | 88,6 | 96,7 | 8,9 |
| 4 | Marg'ilon | 62,0 | 80,2 | 109,2 | 8,1 |
| Tumanlar: | | | | | |
| 5 | Oltiariq | 38,8 | 40,3 | 87,8 | 4,1 |
| 6 | Qo'shtepa | 36,5 | 30,5 | 70,5 | 3,1 |
| 7 | Bag'dod | 26,8 | 35,6 | 112,1 | 3,6 |
| 8 | Buvayda | 15,4 | 30,8 | 168,2 | 3,1 |
| 9 | Beshariq | 45,9 | 25,1 | 46,3 | 2,5 |
| 10 | Quva | 41,1 | 61,7 | 127,2 | 6,2 |
| 11 | Uchko'prik | 25,9 | 36,8 | 120,0 | 3,7 |
| 12 | Rishton | 20,8 | 15,1 | 61,6 | 1,5 |
| 13 | So'x | 11,0 | 10,7 | 82,4 | 1,1 |
| 14 | Toshloq | 18,0 | 28,7 | 135,0 | 2,9 |
| 15 | O'zbekiston | 15,4 | 35,4 | 194,6 | 3,6 |
| 16 | Farg'ona | 13,7 | 20,5 | 126,1 | 2,1 |
| 17 | Dang'ara | 43,5 | 78,9 | 154,6 | 8,0 |
| 18 | Furqat | 26,5 | 38,0 | 122,2 | 3,8 |
| 19 | Yozyovon | 20,6 | 38,1 | 156,8 | 3,9 |

Jami qurilish ishlarida hududlarning ulushi


(jamiga nisbatan, % da)



Oʼz kuchi bilan bajarilgan jami qurilish ishlari hajmining eng yuqori hissasi Farg'ona shahrida kuzatildi va jami qurilish ishlari hajmining **21,9** % ni tashkil etdi. Quvasoy shahrida **8,9** % ni, Marg'ilon shahrida **8,1** % ni, Qo'qon shahrida **7,9** % ni, tashkil etdi. Shu bilan birga Dang'ara tumanida **8,0** %, Quva tumanida **6,2** %, Oltiariq tumanida **4,1** %, Yozyovon tumanida **3,9** %, Furqat tumanida esa **3,8** %, Uchko'prik tumanida **3,7** %ni tashkil etdi. Shuningdek, jami qurilish ishlari hajmida hissasi kam boʼlgan tumanlar xususan, Rishton tumanida jami qurilish ishlari hajmining **1,5** %, Farg'ona tumanida **2,1** % ni, hamda So'x tumanida **1,1** % ni tashkil etdi.

Hududlar bo'yicha qurilish ishlarining o'sish sur'atlari

(o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da)



Hududlar bo'yicha ko`radigan bo`lsak joriy davrda qurilish ishlari o'tgan yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'ati viloyatning O'zbekiston tumanida **194,6** % ga o'sdi va jami qurilish ishlari hajmining **3,6** % ni tashkil qildi. Buvayda tumanida **168,2** % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmining **3,1** % ni, Yozyovon tumanida **156,8** % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmining **3,9** % ni, Dang'ara tumanida **154,6** % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmining **8,0** % ni, Toshloq tumanida **135,0** % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmining **2,9** % ni, Quva tumanida **127,2** % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmining **6,2** % ni, Farg'ona tumanida **126,1** % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmining **2,1** % ni tashkil etdi. Shuningdek, Farg'ona shahrida o'sish sur'ati **104,9** % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmining **21,9** % ni tashkil etdi. Qo'qon shahrida o'sish sur'ati **99,5** % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmining **7,9** % ni tashkil etdi. Marg'ilon shahrida o'sish sur'ati **109,2** % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmining **8,1** % ni tashkil etdi. Quvasoy shahrida **96,7** % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmining **8,9** % ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari tarkibi

(jamiga nisbatan %da)

| | Yirik qurilish tashkilotlari | Kichik korxona va mikrofirmalar | Norasmiy sektor |
|---------------------|------------------------------|---------------------------------|-----------------|
| Jami viloyat | 5,1 | 61,9 | 33,0 |
| <i>shaharlar:</i> | | | |
| Farg`ona | 3,4 | 72,3 | 24,3 |
| Qo'qon | 21,6 | 60,6 | 17,8 |
| Quvasoy | 8,3 | 77,8 | 13,9 |
| Marg`ilon | 0,0 | 80,8 | 19,2 |
| <i>tumanlar:</i> | | | |
| Oltiariq | 0,4 | 77,3 | 22,3 |
| Qo'shtepa | 0,5 | 64,5 | 35,0 |
| Bag`dod | 8,4 | 78,1 | 13,5 |
| Buvayda | 0,2 | 31,8 | 68,0 |
| Beshariq | 8,1 | 39,1 | 52,8 |
| Quva | 0,8 | 41,9 | 57,3 |
| Uchko'prik | 0,8 | 81,1 | 18,1 |
| Rishton | 2,7 | 74,3 | 23,0 |
| So'x | 0,0 | 80,5 | 19,5 |
| Toshloq | 0,4 | 46,8 | 52,8 |
| O'zbekiston | 0,2 | 40,6 | 59,2 |
| Farg`ona t | 4,8 | 77,2 | 18,0 |
| Dang`ara | 3,7 | 33,5 | 62,8 |
| Furqat | 0,5 | 30,6 | 68,9 |
| Yozyovon | 22,0 | 50,3 | 27,7 |



Farg'ona viloyati statistika boshqarmasi

"Investitsiyalar va qurilish statistikasi" bo'limi

Aloqa telefoni: (73) 241-98-42